

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI

SA‘DIYNING “GULISTON” ASARIDAGI QO‘SHMA FE‘LLAR TADQIQI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (fors tili)

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

UDK: 811.222.1'367.625+821.222.1'04.09-1

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Содержание автореферата диссертации доктора философских (PhD) по
филологическим наукам**

Turdaliyev Olimjon Fayzullajon o'g'li
Sa'diyning "Guliston" asaridagi qo'shma fe'llar tadqiqi.....3

Турдалиев Олимжон Файзуллажон угли
Исследование сложных глаголов в произведении Саади «Гулистан».....23

Turdaliev Olimjon Fayzullajon ugli
Study of complex verbs in Saadi's work "Gulistan".....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....49

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI

SA‘DIYNING “GULISTON” ASARIDAGI QO‘SHMA FE‘LLAR TADQIQI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (fors tili)

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3721 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Amonov Muxtorjon Umarovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Alimova Xolidaxon Zikrillayevna

filologiya fanlari doktori, professor

Maxmudov Umedullo Akmaliddin o'g'li

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 105. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: fardu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).



S.M. Muminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

M.T. Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.n., professor

G.Z. Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy asar tilining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq tadqiqotlar o‘zining uzoq tarixiga ega. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab badiiy asar tilini o‘rganish va u bilan bog‘liq til sathi birliklarini tadqiq etish ustuvor bo‘lmoqda. Xususan, tilning turli sathlariga oid bo‘lgan murakkab birliklarning lisoniy xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini nazariy jihatdan asoslash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida tilning murakkab xarakterli birliklaridan hisoblangan qo‘shma so‘z, xususan, qo‘shma fe‘llar bo‘yicha muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning lisoniy tabiati borasidagi qarashlar, ularga nisbatan qo‘llangan terminlarning xilma-xilligi ushbu birliklar yuzasidan fikrlarning ko‘pligi va bahstlab ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli qo‘shma fe‘llar haqidagi qarashlar va ta‘riflarni chuqur o‘rganish ularning lisoniy tabiatini ochib berish va tasniflardagi noaniqliklarni bartaraf etishda nazariy ahamiyatga egadir.

O‘zbek tilshunosligida ham fors tilining nazariy masalalari, xususan, fe‘l turkumiga oid so‘zlarning tuzilishi, grammatik kategoriyalari, sintaktik, stilistik, leksik-semantik xususiyatlari yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, qo‘shma fe‘llar mavzusi yetarlicha hal qilinmagan muammolardan biri sanaladi. O‘zbek tilshunosligida fors tilidagi qo‘shma fe‘llar mavzusining o‘rganilishi ayrim maqolalar va ba‘zi ilmiy ishlarda berilgan umumiy xarakterdagi ma‘lumotlardangina iborat bo‘lib, fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bu esa mazkur mavzuni monografik planda tadqiq etish, “Guliston” asaridagi qo‘shma fe‘llarning morfologik xarakterini ochib berish, ularning erkin fe‘lli birikmalar va fe‘lning analitik shakllaridan o‘zaro farqlovchi jihatlarni aniqlash zaruratini taqozo etadi. Sh.M.Mirziyoyev “...tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o‘rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini targ‘ib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimizning buyuk ma‘naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish bo‘yicha dolzarb vazifalar turganini...”¹ alohida ta‘kidlagan edilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu fikrlari, shuningdek, sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan ishlarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-son Qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2995-son Qarori. – Xalq so‘zi, 2017-yil 24-may. – № 103.

tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-126-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 304-son Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sa’diy Sheroziyning ijodiy merosi, jumladan, “Guliston” asarini o‘rganish hamda o‘zga tillarga tarjima qilish orqali uni jahon xalqlariga tanishtirishda Sh.Mirzoaliyeva, Z.Nazarova, E.Istvik, Sh.Isrofilniyo, U.Abdullohi, A.Xudoydodov, H.Yazdoni, Sh.Xojamurodova, A.Gurbonali² kabi xorijlik olimlarning xizmati katta. Asar turli davrlarda yashab o‘tgan ijodkorlar Sayfi Saroyi, Muhammadrizo Ogahiy, Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li, G‘afur G‘ulom, Shoislom Shomammedov va Rustam Komilovlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Shu bilan birga asar rus tiliga ham ko‘p marta tarjima qilingan.

Fors tilidagi fe‘l turkumi yuzasidan eronlik tilshunoslar A.Qarib, A.Xayyompur, M.J.Mashkur, A.A.Faqihi, A.A.Partav, P.N.Xonlari, M.Muiyniyon, M.Mashkutaddini, G‘.Arjang, H.A.Givi va H.Anvari³, rus tilshunoslari Y.E.Bertels, L.S.Peysikov, Y.A.Rubinichik, A.F.Barishnikov, A.A.Veretennikov⁴, ingliz tilshunoslari D.Fillot, K.Nouri, R.Levi⁵, turk tilshunosi M.Kanar⁶ kabi olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy ishlar katta ahamiyat kasb etadi.

² Мирзоалиева Ш. Мавкеи соматизми “даст” дар «Гулистон»-и шайх Муслихиддин Саъдии Шерози. <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-somatizm-ruka-v-guliston-e-saadi-sherozi/viewer>; Назарова З. Лексическая и грамматическая синонимия глаголов в произведении «Гулистан» Саади Шерози: Дисс.кан.филол.наук. – Душанбе, 2009; Иствик Э.Б. «Бустон ва Гулистон»-и Саъдии Шерозӣ. – Техрон: Амири Кабир, 2009; Исрофилиниё Ш.Р., Рахнамо А. Шархи мунтахаби «Гулистон»-и Саъдии Шерозӣ. – Душанбе: Пайванд, 2016; Абдуллоҳи У. Назар ба таржеъбанди Саъдии; Худойдодов А. Мухаммадзода Дж. Переводы «Гулистан» на узбекский язык в разные периоды. <https://cyberleninka.ru/article/n/vzglyad-natardzheband-saadi-sherozi/viewer>; Yazdoni H. Gulistani Saadi. – Lohur: Sange meel, 2015; Ходжамуродова Шахноза Равшановна Особенности изучения и переводы «Гулистана» Саади в Китае: Дисс.кан.филол.наук. – Душанбе, 2020; Мансурирази А.Г. Синтаксические особенности сложноподчиненных предложений в «Гулистане» Саади: Дисс.кан.филол.наук. – Душанбе, 2012.

³ عبد العظيم قريپ و ديگران. دستور زبان فارسی ۲. – تهران: ناهيد، ۱۹۴۸؛ عبدالرسول خيامپور. دستور زبان فارسی. – تيريز: چاپ شفق، ۱۹۶۵؛ محمد جواد مشكور. دستورنامه در صرف و نحو زبان پارسی. – تهران: ۱۹۶۷؛ علي اصغر فقيهی. دستور زبان فارسی. – قم: اسماعيليان، ۱۹۷۰؛ بولقاسم عظيم پرتو. نخستين دستور. – تهران، ۱۹۷۵؛ پرويز نائل خانلری. تاريخ زبان فارسی. – تهران: بنياد فرهنگ ايران، ۱۳۵۲؛ مهدي معينيان. دستور زبان فارسی. – تهران: كورش، ۱۳۶۹؛ مهدي مشكوه الدينی. دستور زبان فارسی. – مشهد: سازمان سمت، ۱۳۹۱؛ مهدي مشكوه الدينی. دستور زبان فارسی. – مشهد: سازمان سمت، ۱۳۹۱؛ غلامرضا ارژنگ. دستور زبان فارسی امروز. – تهران: نشر قطره، ۱۹۹۵؛ حسن احمدی گيوی و حسن انوری. دستور زبان فارسی. – تهران: انتشارات فاطمی، ۲۰۰۶.

⁴ Бертелс Е.Э. Грамматика персидского языка. – Л.: Институт живых восточных языков им. А.С.Енукидзе, 1926; Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: МГУ, 1975; Рубинчик Ю.А. Грамматика современного литературного персидского языка. – М.: Наука, 1981; Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии современного персидского языка. – М.: Наука, 1981; Баришников А.Ф. Лексикология и фразеология персидского языка. – М.: ВКИ, 1982; Веретенников А.А. Многочленные глагольные фразеологизмы в персидском языке: Автореф.дисс.кан.филол.наук. – М., 1982; Веретенников А.А. Очерки глагольной фразеологии персидского языка. – М.: Наука, 1993.

⁵ Phillot D. Higher Persian grammar. – Kalkutta, 1919; Nouri C. Persian Verbs in Spatial Events: with a Specific Focus on Complex Predicates. – Lille, 2019; Levy R. The Persian language. – New York, 1951.

Turkologiyada ham fe'l turkumi yuzasidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, B.Qosimova "Hozirgi qozoq tilidagi qo'shma fe'llar"⁷, F.G.Minnullin "Tatar tilidagi fe'llar va ularning lug'atda ifodalanishi"⁸, R.K.Ishtanova tomonidan "Tatar tilidagi fe'llar semantik aspektda"⁹, M.D.Chertikova "Xakas tilida nutq fe'llari (sistem-semantik aspekt)"¹⁰, A.A.Tsalkalamanidze "Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'l fe'lining qo'llanishi va semantik sistemasi"¹¹, G.N.Isaqova "O'zbek tilida qilmoq fe'lining leksik-semantik xususiyatlari"¹² mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishgan. Ozarbayjon tilshunosi A.Mamedovaning ishida "Layli va Majnun" dostonidagi qo'shma fe'llar tahlil qilingan¹³. Qumiq tilidagi qo'shma va tarkibli fe'llar yuzasidan esa L.S.Arkitskaya¹⁴ tomonidan qilingan tadqiqot ishi katta ahamiyatga egadir.

O'zbek tilshunosligida mazkur mavzuning o'rganilishi ayrim maqola va tadqiqotlarning kichik qismlarida umumiy xarakter va misollar berish bilan cheklanadi. Xususan, A.Quronbekov, X.Alimova, V.Vahidov, D.Ahmedova, D.Azimjonova, N.Nuritdinov, H.Mirzahmedova, N.Ahmedjonova, M.Omonov, Z.Arifjanov¹⁵ kabi olimlarning ilmiy ishlari va maqolalarida qo'shma so'zlar, fe'l turkumi hamda qo'shma fe'llar bilan bog'liq ba'zi jihatlar o'rganilgan. Shunday bo'lsa ham, fors tilidagi qo'shma fe'llar yuzasidan fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shu sababli fors tilidagi qo'shma fe'llar mavzusini o'rganish hozirgi vaqtda muhim hisoblanadi.

⁶ Kanar M. Farscha dilbilgisi. – Istanbul, 1968.

⁷ Касымова Б. Сложные глаголы в современном казахском языке: Автореф.дисс.кан.филол.наук. – Алма-Ата, 1992.

⁸ Миннуллин Ф.Г. Глаголы татарского языка и их лексикографирование: Дисс.кан.филол.наук. – Казань, 2003.

⁹ Иштанова Р.К. Глаголы татарского языка в семантическом аспекте: Дисс.кан.филол.наук. – Казань, 2002.

¹⁰ Чертыкова М.Д. Глаголы говорения в хакасском языке (системно-семантический аспект): Автореф.дисс.кан.филол.наук. – Новосибирск, 1996.

¹¹ Цалкаламанидзе А.А. Система значений и функционирование глагола бўл- в современном узбекском литературном языке: Автореф.дисс.кан.филол.наук. – Ташкент, 1973.

¹² Исакова Г.Н. Ўзбек тилидаги қилмоқ фе'лининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2008.

¹³ Мамедова А. Сложные глаголы в произведении «Лейли и Меджнун» Мухаммеда Физули. Висник дніпропетровського університету імені альфреда нобеля серія «філологічні науки». – 2017. №1 (13).

¹⁴ Аркитская Л.С. Сложные и составные глаголы в кумыкском языке: Автореф.дисс.кан.филол.наук. – М., 1990.

¹⁵ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent: TDSHI, 2009; Alimova X.3. Dariy tiliida sўz yasaliishi. – Toshkent: TDShI, 2019; Alimova X.3. Dariy tiliida sўz yasaliшининг ички лингвистик усуллари: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2019; Vohidov A.A. Fors tilida so'z yasalishi. – Toshkent: TDSHI, 2010; Vahidov A.A. Причастия в современном персидском языке (функционально-грамматический анализ): Дисс.кан.филол.наук. – М., 1990. – 178 с; Ahmedova. D.R. Fors tilida qo'shma fe'llarning yasalish usullari va unda o'zlashma so'zlarning tutgan o'rni // O'zbekistonda xorijiy tillar. 2020. №5; Ahmedova D.P. Fors tiliida tarz xoliniнг структур ва семантик таснифи. Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2011; Azimjonova D. Приемы употребления глагольных синонимов в персидском языке // Востоковедения, 2021. №1; Нуриддинов Н.Н. Форс тилида қўшма сўз ва сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари: Филол.фан.б.фалс.док... дисс.автореф. – Тошкент, 2017; Мирзахмедова Ҳ.В. Форс тилида термин ясалишининг назарий ва эмпирик асослари: Филол.фан.б.фалс.док... дисс.автореф – Тошкент, 2017; Ahmedjanova N.A. Словообразование имен существительных и прилагательных в современном литературном персидском языке: Автореф. дисс.кан.филол.наук. – Тошкент, 1956; Амонов М.У. "Бобурнома"даги изофий бирикмаларнинг лисоний тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф – Фарғона, 2020; Arifjanov Z. Fors tilida yordamchi fe'llarning variantlari. O'zbek sharqshunosligi: bugun va ertasi. – Toshkent, 2015.

Bu esa ushbu til birliklarining leksik-semantik, struktur xususiyatlarini, ularga o'xshash bo'lgan fe'ning murakkab grammatik shakllarini tahlil qilish, qo'shma fe'llardan farqli jihatlarini ko'rsatib berish bilan uzviy bog'liqdir.

“Guliston” asari adabiyotshunoslar va tilshunoslar tomonidan ko'p jihatlardan tadqiq etilgan bo'lsa-da, shu kunga qadar asardagi qo'shma fe'llar bo'yicha maxsus tadqiqot olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “So'z turkumlarini struktur-semantik tadqiq etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sa'diyning “Guliston” asarida qo'llangan qo'shma fe'llarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fors tilidagi fe'l turkumi va qo'shma fe'llarga oid tadqiqotlar tahlilini amalga oshirish;

“Guliston” asarida uchraydigan qo'shma fe'llarning struktur tiplari va derivatsion modellarini aniqlash;

“Guliston” asarida qo'llangan qo'shma fe'llar va fe'ning murakkab grammatik shakllari o'rtasidagi lisoniy farqlarni ko'rsatish va uning ilmiy me'zonlarini ishlab chiqish;

“Guliston” asarida ishlatilgan qo'shma fe'llarning morfologik, semantik va komponent tahlilini amalga oshirish;

“Guliston” asaridagi qo'shma fe'llarning statistik tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sa'diy Sheroziyning “Guliston” asarining 1997-yil Tehron universiteti professori Xalil Xatib Rahbar tomonidan tayyorlangan nashri belgilangan.

Tadqiqot predmetini Sa'diy Sheroziyning “Guliston” asarida qo'llangan qo'shma fe'llarning tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, kontekstual semantik-stilistik va lingvostatistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Guliston” asarida qo'shma fe'llarning “ism+fe'l”, “old ko'makchi+ism+fe'l”, “infinitiv+fe'l”, “ism+old ko'makchi+yuklama+fe'l” kabi 4 ta umumiy morfologik-struktur tipi va ularga oid 13 ta umumiy yasaliş modeli aniqlangan. Ulardan “ot+fe'l” modeli sermahsul, “sifat+fe'l”, “ravish+fe'l”, “az old ko'makchisi+ism+fe'l”, “dar old ko'makchisi+ism+fe'l”, “be old ko'makchisi+ism+fe'l” modellari o'rta, “bar old ko'makchisi+ism+fe'l”, “infinitiv+fe'l”, “harakat nomi+fe'l”, “undov so'z+fe'l”, ism+be old ko'makchisi+ham yuklamasi+fe'l”, ism+dar old ko'makchisi+ham yuklamasi+fe'l”, “ravishdosh+fe'l” modellari kammahsul ekanligi aniqlangan;

qo'shma fe'llarning morfologik maqomini belgilash va ularni erkin fe'lli birikmalardan farqlashda semantik va sintaktik belgilarning asosiy ekanligi, qo'shma fe'llarning distant holati ba'zan lisoniy grammatik xarakter sifatida,

ba'zan muallifning individual uslubi va matndan ko'zlangan stilistik maqsadni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'lishi asoslangan;

qo'shma fe'lda ism qismga qo'shiluvchi ko'plik shakli **ها** *hā* (lar) asosan stilistik vazifa bajarib, "harakatning takrori" va "kuchaytirilishi" kabi grammatik ma'nolarni ifoda etishi, **كه** *ke* bog'lovchisi fe'l va ism qism o'rtasida qo'llanganda ma'noni ta'kidlash vazifasini bajarib kelishi dalillangan;

qo'shma fe'llardagi ekvivalentlik hodisasidan "Guliston" asarining nasriy qismlarida saj san'atini yuzaga chiqarishda takrorlardan qochish uchun va she'riy qismlarida qofiya yasashda qo'shma fe'llardagi ism yoki fe'l qismning kontekst mazmunidan kelib chiqib, tushib qolishi mumkinligidan unumli foydalanilganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qo'shma fe'llarning morfologik-sintaktik, semantik va so'z yasalishi jihatidan xususiyatlari aniqlangan;

"Guliston" asaridagi qo'shma fe'llar va fe'ning murakkab grammatik shakllari o'rtasidagi o'zaro farqlovchi mezonlar asoslangan;

"Guliston" asarida qo'llangan fe'llarning lingvostatistik tahlili amalga oshirilib, qo'shma fe'llarning sodda va prefiksli fe'llarga nisbatan ishlatilish chastotasi aniqlangan;

qo'shma fe'llarda ism qismga xos morfologik va leksik vositalarning lisoniy va nutqiy funksiyasi yoritilgan;

"Guliston" asarida qo'shma fe'llarning distant holatda kelishi, uning sintaktik ko'rinishlari va matndagi vazifalari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mavzuga yondashuv va uning tadqiqida qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga to'la muvofiqligi, keltirilgan nazariy fikrlarning ilmiy va maxsus manbalarga asoslanganligi, xulosalarning amaliyotga tadbiiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, nazariy fikrlar va ularga munosabat bildirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fors tilidagi qo'shma fe'llarning morfologik-sintaktik, stilistik va grammatik xususiyatlarini aniqlashda, fe'ning murakkab shakllari hamda qo'shma fe'llarning o'zaro farqlovchi jihatlarini asoslashda, kompozitsiya usulida yasalgan fe'l turkumiga oid so'zlarning komponent tahlilini amalga oshirishda muhim dalillarni berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosalar va tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlarining eron-afg'on filologiyasi yo'nalishi talabalari uchun "Fors tili leksikologiyasi", "Fors tilida so'z yasalishi", "Fors tili stilistikasi", "Mumtoz fors tili", "Mutaxassislikning nazariy masalalari", filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabalari uchun "O'zbek tili leksikologiyasi", "Chog'ishtirma tilshunoslik" kabi o'quv fanlaridan, tarix va arxivshunoslik yo'nalishidagi talabalar uchun sharq tillari fanidan ma'ruza matni, darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda va mutaxassislar uchun maxsus kurs, dissertatsiya va monografiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning nazariy takliflari, amaliy tavsiyalari va xulosalari quyidagi loyihalar doirasida foydalanilgan:

qo'shma fe'llarning morfologik maqomini belgilash va ularni erkin fe'lli birikmalardan farqlashda semantik va sintaktik belgilarning asosiy ekanligi, qo'shma fe'llarning distant holati ba'zan lisoniy grammatik xarakter sifatida, ba'zan muallifning individual uslubi va matndan ko'zlangan stilistik maqsadni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'lishiga doir xulosalaridan 2022-2023-yillarga mo'ljallangan AL-FDU2022307-010 raqamli "Lingvistik tahrir va tarjimashunoslik" ilmiy-tadqiqot markazida "Antiplagiat" dasturini amaliyotga joriy etishda, ilmiy-amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2024-yil 13-noyabrdagi 04/6647-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Guliston" asari tilida qo'shma fe'llarning o'rni, stilistikasi, asarda qo'llanilishining individual omillari, qo'shma fe'llarning grammatik, leksik-semantik, struktur va yasaliş xususiyatlari, qo'shma fe'llarning kompozitsion usul orqali yasaliş, derivatsiya jarayonida ishtirok etuvchi vositalar tizimi, arabiy so'zlarning qo'shma fe'l yasalişidagi ahamiyati lingvistik modellar asosida aniqlangan va tahrirlash jarayonida qo'llanilgan.

qo'shma fe'lda ism qismga qo'shiluvchi ko'plik shakli *ها hā* (lar) asosan stilistik vazifa bajarib, "harakatning takrori" va "kuchaytirilishi" kabi grammatik ma'nolarni ifoda etishi, *كە ke* bog'lovchisi fe'l va ism qism o'rtasida qo'llanganda ma'noni ta'kidlash vazifasini bajarib kelishi bilan bog'liq natijalaridan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug'atlar) to'plamini yaratish" mavzusidagi F3-2019081663-raqamli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 2024-yil 27-dekabrda 1/04-161-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan "O'zbek folklor san'ati terminlarining qisqacha o'zbekcha-inglizcha-nemischa lug'ati" tegishli ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilgan.

qo'shma fe'llardagi ekvivalentlik hodisasidan "Guliston" asarining nasriy qismlarida saj san'atini yuzaga chiqarishda takrorlardan qochish uchun va she'riy qismlarida qofiya yasashda qo'shma fe'llardagi ism yoki fe'l qismning kontekst mazmunidan kelib chiqib, tushib qolishi mumkinligidan unumli foydalanilganligi xususidagi natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanali ijodkorlari tomonidan 2024-yil uchinchi choragida uzatilgan "Bir asar tarixi" radioeshittirishini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanalining 2024-yil 2-avgustda 11-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Guliston" asari haqidagi ma'lumotlar tinglovchilarga yetkazilib, eshittirishning ilmiy-ommabopligi hamda mazmuni boyitilgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ish: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda,

qolganlari respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarning to‘plamlarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Fors tilidagi qo‘shma fe‘llarning o‘rganilishi”** deb nomlanib, unda jahon, fors va o‘zbek tilshunosligida qo‘shma fe‘llar haqidagi nazariy qarashlar, ushbu murakkab til birligining asl mohiyatini yoritishga, **“Guliston”** asarining adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishiga e‘tibor qaratilgan.

Bobning **“Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asari va uning o‘rganilishi”** deb nomlangan birinchi faslida muallifning hayoti va ijodi, asar bo‘yicha tilshunoslik, adabiyotshunoslik, pedagogika, falsafa nuqtayi nazaridan qilingan ishlar va uning turli tillarga qilingan tarjimalari haqida muhim ma‘lumotlar berilgan.

Adabiyotshunos olimlar **“Guliston”** asari yuzasidan salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Asarning o‘rganilishi uning boshqa tillarga qilingan tarjimalaridan boshlangan. U o‘zbek tiliga turli davrlarda Sayfi Saroyi, Ogahiy, Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li, G‘afur G‘ulom, Shoislom Shomammedov, Rustam Komilovlar tomonidan tarjima qilingan. Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘lining tarjimasi mutaxassislar tomonidan **“shakl va ma‘no jihatidan asliyatga eng yaqin”**¹⁶ deb baholangan. Shuningdek, asar Vang Dzin Jaya, Jang Hong Niana, Yang Van Bao, Shuey Fu Dzienlar tomonidan xitoy tili¹⁷ga va boshqa tarjimolar tomonidan bir necha marotaba rus va g‘arbiy Yevropa tillariga ham o‘girilgan.

Sa‘diy asarlarini to‘plash, chop etish va ularga sharhlar yozishda S.Ayniy¹⁸, A.Dehoti va I.Alizoda¹⁹, H.Zoirov²⁰, A.Rahnamo²¹, R.Aliyev²², Q.Rasuliyon va A.Mo‘soyev²³, A.Zarrinkub²⁴ kabi olimlarning xizmati kattadir.

¹⁶ Худойдодов А., Мухаммадзода Дж. Переводы «Гулистан» на узбекский язык в разные периоды. – С. 123. <https://cyberleninka.ru/article/n/perevody-guliston-na-uzbekskiy-yazyk-v-raznye-periody>. (Murojaat sanasi: 03.02.2024)

¹⁷ Bu haqda qarang: Ходжамуродова Ш. Особенности изучения и переводы «Гулистан»-а Саади в Китае: Дисс.кан.филол.наук. – Душанбе, 2020. – С. 4.

¹⁸ Айнӣ С. Шайх Муслихиддин Саъдии Шерозӣ. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1942.

¹⁹ Саъдии Шерозӣ. Ғазалиёт. – Душанбе: Адиб, 2014. – С. 8.

²⁰ Зоиров Х. Адабиёти тасаввуф (асрҳои XI-XIII). – Хужанд: Ношир, 2013.

²¹ Раҳнамо А. Шарҳи осонбаён бар дебочаи “Гулистон”-и Шайх Саъдии Шерозӣ ба забони муосири тоҷикӣ. – Душанбе, 2010; Исрофилниё Ш., Раҳнамо А. Шарҳи мунтахаби «Гулистон»-и Саъдии Шерозӣ. – Душанбе: Пайванд, 2016.

²² Bu haqda qarang: Ходжамуродова Ш. Особенности изучения и переводы «Гулистан» Саади в Китае: Дисс.кан.филол.наук. – Душанбе, 2020. – С. 12.

²³ Саъдии Шерозӣ. Саду як ғазал. – Душанбе: Ирфон, 2008.

²⁴ عبدالحسين زرين كوب. حديث خوش سعدي. – تهران: سخن، ۱۳۷۹.

“Guliston” asari badiiyati va til xususiyatlari bo‘yicha A.Mahmudi²⁵, M.Asil va S.Ahmadi²⁶, M.Fatuhi²⁷, F.Rahmoni²⁸, H.Rahnamo²⁹, F.Muayyani³⁰, A.Amiri va N.Faol³¹, A.Ravoqi³², P.Albo‘rzi³³, N.Alipur³⁴, V.Amon³⁵, Z.Nazarova³⁶, A.Gurbonali³⁷, Sh.Mirzoaliyeva³⁸ kabi adabiyotshunos va tilshunoslarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Bobning “*Jahon eronshunoslarining qo‘shma fe’llar borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari*” deb atalgan ikkinchi faslida jahon tilshunoslarining fors tilidagi qo‘shma fe’llar yuzasidan bildirgan fikrlari hamda mavzu bilan bog‘liq masalalar tahlilga tortilgan.

Jahon eronshunoslarining fe’l turkumi, xususan qo‘shma fe’llarga oid asarlari tahlili mazkur masala asosan rus³⁹ va ingliz⁴⁰ tilshunoslarining ishlarida tadqiq etilganini ko‘rsatdi.

Rus eronshunosi Y.A.Rubinichik⁴¹ qo‘shma fe’llarni frazeologik birlik sifatida talqin etgan bo‘lsa, Y.E.Bertels⁴² grammatik, leksik va semantik xususiyatlarini yoritishga harakat qiladi. A.K.Arends⁴³ fors tilidagi qo‘shma fe’llarning qo‘shma so‘z sifatida o‘ziga xos lisoniy xarakterga ega ekanligini birinchi bo‘lib ko‘rsatgan olim sanaladi. Uning ishida asosiy e’tibor qo‘shma fe’llarning morfologik-grammatik xususiyatlari tahliliga qaratilgan.

25. علیرضا محمودی. ارتباطات غیرکلامی در گلستان سعدی // زبان و ادب فارسی. – شماره ۶۹. ۱۳۹۵.

26. محمدحسین نیکدار اصل و سیروس احمدی. تحلیلی بر فشربندی اجتماعی در گلستان سعدی // تاریخ ادبیات. – شماره ۷۱. ۱۳۹۱.

27. محمود فتوحی. سبکشناسی رسائل سعدی // سعدی شناسی. – شماره ۱۵. ۱۳۹۱.

28. فاتح رحمانی. بررسی گلستان سعدی با تکیه بر یافته های روان تحلیل گری // بوستان ادب. – شماره ۵. ۱۳۸۹.

29. هوشنگ رهنما. در باب گلستان // سعدی شناسی. – شماره ۱۰. ۱۳۸۶.

30. فرزانه معینی. رویکرد های تازه به گلستان // سعدی شناسی. – سال ۱۳۸۸. شماره ۱۲.

31. احمد امیری خراسانی و نجمه فعال. شیوه های آیات و احادیث در مکالمه های حکایات گلستان // بوستان ادب. – شماره ۲. ۱۳۸۸.

32. علی رواقی. سعدی و زبان فارسی // سعدی شناسی. – شماره ۶. ۱۳۸۰.

33. پرویز البرز. آهنگ گلستان // علوم انسانی و مطالعات فرهنگی. – شماره ۳-۴. ۱۳۶۹.

34. نعمت الله علی پور. مقایسه ی فعل مرکب از دیدگاه دستور زبان سنتی و جدید در گلستان سعدی // فصل نامه تحلیل و نقد متون زبان و ادبیات فارسی. – شماره ۱۹. ۱۳۹۳.

35. Амон В. Таҳлили луғавии чанд ҳикояти «Гулистон»-и Саъдии Шерозӣ. – Самарқанд: ДДС, 2004.

36. Назарова З.А. Лексическая и грамматическая синонимия глаголов в произведении “Гулистан” Саиди Шерози: Автореф.дисс.кан.фил.наук. – Душанбе: Сино, 2009.

37. Мансурирази А.Г. Синтаксические особенности сложноподчиненных предложений в «Гулистан» Саади: Дисс.кан.фил.наук. – Душанбе, 2012.

38. Мирзоалиева Ш. Мавкеи соматизми “даст” дар «Гулистон»-и шайх Муслихиддин Саъдии Шерози.// Паёми Донишгоҳи омӯзгорӣ. – Душанбе, 2020.

39. Бертелс Е.Э. Грамматика персидского языка. – Л.: Институт живых восточных языков им. А.С.Енукидзе, 1926; Арендс А.К. Краткий синтаксис современного персидского литературного языка. – Л.: Академ.наук, 1941; Баришников А.Ф. Лексикология и фразеология персидского языка. – М., 1982; Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии современного персидского языка. – М.: Наука, 1981; Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М., 1975; Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: МГУ, 1973; Кудзоева А.Ф. Сложные глаголы в осетинском и персидском языках // СОИГСИ. – 2021. №41 (80); Громова А.В. Глаголы падения в персидском языке и в диалектах Ирана. Доклад конференции. Языковая системы народов Азии и Африки: особенности и проблематика. – Россия: Институт лингвистических исследований РАН, 2017 г 26-ноябр; Олег Х.А. Перфект и претерит в современном персидском языке в типологическом освещении: Дисс.кан.фил.наук. – М., 2002; Мухлиннина С.В. Антонимические отношения в сфере глагольной фразеологии персидского языка (на материале сложных глаголов): Автореф.дисс.кан.фил.наук. – М., 1997.

40. Levy R. The Persian language. – New York, 1951; Nouri C. Persian Verbs in Spatial Events: with a Specific Focus on Complex Predicates. – Lille, 2019; Phillot D. Higher Persian grammar. – Kalkutta: University of Usmania, 1919.

41. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии современного персидского языка. – М.: Наука, 1981.

42. Бертелс Е.Э. Грамматика персидского языка. – Л.: Институт живых восточных языков им. А.С.Енукидзе, 1926.

43. Арендс А.К. Краткий синтаксис современного персидского литературного языка. – Л.: Академ.наук, 1941.

L.S.Peysikov⁴⁴ ishlarida *infinitiv+fe'l* turi klassik fors tilida ko'p qo'llangani ta'kidlanadi. Uning fikricha, asosiy fe'ldan anglashilgan ish-harakatning boshlanishini ifodalovchi *gereftan (olmoq, ushlamoq, tutmoq)* fe'li bilan keladigan *bāridan gereftan (yog'a boshlamoq), ruyidan geraftan (o'sa boshlamoq), tapidan geraftan (ura boshlamoq (yurak haqida)), šekāftan gereftan (ochila boshlamoq)* fe'llari ham "*infinitiv+fe'l*" modelidagi qo'shma fe'llar sirasiga kiradi. Bizningcha, mazkur fe'llarni nutq hodisasi sifatida baholash va fe'lning murakkab grammatik shakli sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tilshunoslarining ishlari tahlili ularda, asosan, qo'shma fe'llarning morfologik xususiyatlarini yoritishga e'tibor qaratilganini ko'rsatdi. Xususan, R.Levi⁴⁵ ishida klassik fors tilining dastlabki davrlarida qo'shma fe'llardagi ekvivalentlik hodisasining ayrim stilistik jihatlarini hamda arabizmlarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli masalalari o'rganilgan. D.Fillot⁴⁶ fikriga ko'ra esa qo'shma fe'llarda ism qism morfologik ko'rsatkichlarni qabul qilib kelishi mumkin. Lekin bu shakl o'zgarishi qo'shma fe'lning ma'nosiga ta'sir o'tkazmaydi.

Tojik tilshunosligida ham fe'l turkumi yuzasidan salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. T.Berdiyeva, Z.Nazarova, S.Halimiyon, M.Qosimi kabi olimlarning tadqiqotlari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, tilshunos T.Berdiyeva⁴⁷ ishida ism qismi arabiy so'z bo'lgan qo'shma fe'llarning mundarijasi va ularning soddaga fe'llar bilan valentlik imkoniyatlari ko'rsatib berilsa, Z.Nazarova⁴⁸ tomonidan "Guliston" asarida uchraydigan fe'llarda leksik va grammatik sinonimiya hodisasi tahlil qilingan. S.Halimiyon⁴⁹ esa fe'llarni tuzilishi, grammatik kategoriyalari hamda vazifa shakllari bo'yicha tahlil qilgan. M.Qosimining tadqiqotida esa fors, tojik va dariy tillarining umumiy madaniy merosi hisoblangan bir nechta asarlardagi fe'l turkumi umumiy jihatdan o'rganilgan. Olimning ishidagi e'tiborli jihat shuki, *kardan (qilmoq)* fe'li yordamchi fe'l sifatida keladigan 165 ta qo'shma fe'l morfologik qurilishiga ko'ra tahlil qilingan⁵⁰.

Bobning "*Eron tilshunosligida qo'shma fe'llarning o'rganilishi*" deb nomlangan uchinchi faslida mavzuga doir tadqiqotlar va eronlik tilshunoslarning qo'shma fe'llar haqidagi qarashlari yoritilgan.

Eronlik tilshunoslarning tadqiqotlarida qo'shma fe'llarga nisbatan asosan *فعل مرکب fe'l-e morakkab*, *کنش آمیزه koneš-e āmize*, *فعل ترکیبی fe'l-e tarkibi*, *فعل گزاره fe'l-e gozāre* kabi terminlar qo'llangan.

Qo'shma fe'llarning morfem qismlarini nomlashda ham nomutanosiblik kuzatiladi. Xususan, qo'shma fe'llardagi fe'l qism *همکرد hamkard*, *فعل یاری کننده*

⁴⁴ Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Московский университет, 1975. – С. 109.

⁴⁵ Levy R. The Persian language. – New York, 1951.

⁴⁶ Phillot D. Higher Persian grammar. – Kalkutta: University of Usmania, 1919.

⁴⁷ Бердиева Т. Феълҳои таркибии номи бо исмҳои араби. – Душанбе: Сино, 1995.

⁴⁸ Назарова З.А. Лексическая и грамматическая синонимия глаголов в произведении "Гулистан" Саиди Шерози: Автореф. дисс. кан. филол. наук. – Душанбе: Сино, 2009.

⁴⁹ Ҳалимиён С. Феъл (Куниш). – Душанбе: Донишгоҳ миллии Тоҷикистон, 2013.

⁵⁰ Касеми М. Глагольная лексика в памятниках раннего периода новоперсидского (таджикского) языка: Автореф. дисс. кан. филол. наук. – Душанбе, 2000. – С. 14.

fe'l-e yārikonande, ism qism esa *فعلیاری* *fe'liyār*, اسم *esm* kabi terminlar bilan izohlangan.

Qo'shma fe'llarga berilgan ta'riflarning deyarli barchasida qo'shma fe'llarning tarkibi ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat ekani ta'kidlanadi. Ma'lumki, mustaqil leksemalar qo'shma so'z hosil qilganda, o'zlarining so'z maqomini yo'qotib, hosilaning morfem qismi funksiyasini bajarishga xoslanadi. Qo'shma so'zlarni ma'noli qismlarga ajratishda uning leksik ma'no anglatuvchi qismlarini so'z sifatida emas, balki mustaqil ma'noli morfema sifatida baholash, bizningcha, maqsadga muvofiqdir.

P.N.Xonlari, M.Najafi, N.Alipur, M.J.Mashkur, A.A.Faqihi, M.Muiyniyon, A.Qarib, M.Mashkutaddini, G'.Arjang, A.A.Partav, H.Nozimi, H.Anvari va A.Givi, kabi eronlik tilshunoslarning asarlarida fe'l turkumiga oid so'zlar tuzilishiga ko'ra 2 tadan 6 tagacha guruhga ajratilgan. Bu esa tasniflashda yagona va aniq mezon mavjud emasligini ko'rsatadi. Bir tasnifga qo'shma fe'lni tashkil qiluvchi qismlar sonining birdan ortiqligi asos qilib olinishi sababli prefiksli fe'llarning qo'shma fe'l sifatida talqin qilinishi⁵¹, til va nutq hodisalarining farqlanmasligi natijasida fe'lning murakkab analitik shakllarini ham fe'lning tuzilishiga ko'ra bir turi sifatida qaralishi⁵², o'ziga xos tuslanishga ega bo'lgan qo'shma fe'llarning ham fe'lning alohida turi sifatida baholanishi⁵³ tasniflardagi noaniqliklarni keltirib chiqargan.

Qo'shma fe'llarni ichki guruhlarga tasnif etishda ham qarashlarda nomutanosiblik ko'rinadi. Aksariyat tilshunoslarning izlanishlarida qo'shma fe'l yasalişining asosan *ism+fe'l* va *old ko'makchi+ism+fe'l*⁵⁴ struktur tipi haqida ma'lumot berilsa, ba'zilarida "yordamchi fe'lli", "uch tarkibli", "fe'l iboralar"⁵⁵ kabi ichki guruhlari mavjudligi ta'kidlanadi.

P.N.Xonlari, N.Alipur, M.Mashkutaddini kabi eronlik olimlar ishlarida fe'llar tuzilishiga ko'ra sodda, prefiksli va qo'shma kabi guruhlarga ajratilgan. Ammo ularning ichki semantik guruhlari, derivatsion modellari haqida batafsil to'xtanilmagan. Asosiy e'tibor qo'shma fe'l yasalişida ishtirok etuvchi sodda fe'llar, ularning ishlatilish chastotasi va stilistik xarakteriga qaratilgan. N.Mansuri, M.Shamsferd, M.Ruhizoda kabi tilshunoslar tomonidan fors tilidagi qo'shma fe'llar morfologik va semantik strukturasi ko'ra tahlil qilingan. Ammo ularning ichida *šodan* (bo'lmoq) fe'li bilan hosil qilinuvchi *sifatdosh+šodan fe'li* qolipidagi analitik shakllar ham qo'shma fe'llarning bir turi sifatida talqin qilingan⁵⁶. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, nisbat shakllari grammatik kategoriya sanaladi, so'z yasalişini esa bu leksik hodisadir. Fikrimizcha, lisoniy va nutqiy hodisalarni bir-biridan farqlash lozim.

O'zbek eronshunosligida qo'shma fe'llar bo'yicha monografik tadqiqot kuzatilmadi. A.Quronbekov, X.Alimova, D.Ahmedova, D.Azimjonova

51. ابوالقاسم عظیم پرتو. نخستین دستور. - تهران: ۱۹۷۵. - ص. ۲۸.

52. علی اصغر فقیهی. دستور زبان فارسی. - قم: اسماعیلیان. ۱۹۷۰. - ص. ۱۰۳-۱۰۴.

53. حسن احمدی گیوی و حسن انوری. دستور زبان فارسی. - تهران: انتشارات فاطمی. ۲۰۱۱. - ص. ۲۷.

54. مهدی معینیان. دستور زبان فارسی. - تهران: ۱۹۹۰. - ص. ۱۵۰.

55. علیپور. فعل مرکب از دیدگاه دستور زبان سنتی و جدید در گلستان سعدی // فصل نامه تحلیل و نقد متون زبان و ادبیات فارسی. - ص. ۱۷.

56. Mansuri N.M. Shamsferd M. Ruhizoda. Compound Verbs in Persian // International Journal of Lexicography. - №25 (1). - P.50-67.

Z.Arifjanov kabi olimlarning asarlari va maqolalarida qo‘shma fe’llarning ayrim lisoniy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Xususan, A.Quronbekov⁵⁷ qo‘shma fe’llarning morfologik tarkibi va ayrim yasalish modellari haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, olim tomonidan “Fors tilidagi fe’llarda so‘z yasalishi fors tilshunosligining eng chigal va oxirigacha hal qilinmagan problemalaridan biri”⁵⁸ ekanligi ta’kidlanadi. X.Alimova⁵⁹ ishida sodda fe’llarni parchalash yo‘li bilan qo‘shma fe’l yasalishining 9 ta modeli ko‘rsatiladi va tahlil qilinadi. N.Xodiyeva, D.Ahmedova hamda M.Xabibova hammuallifligidagi maqolada esa sodda fe’llarni parchalash yo‘li bilan qo‘shma fe’l yasalishining 12 ta modeli mavjudligi ta’kidlanadi⁶⁰. D.Azimjonovanning tadqiqotida fe’l turkumiga oid so‘zlarning til uslublarini farqlashdagi roli masalasi yoritiladi. Muallifga ko‘ra, qo‘shma fe’llarni tashkil qiluvchi ism qism ham, yordamchi fe’l qism ham bir uslubni boshqasidan farqlashga xizmat qilishi mumkin⁶¹.

Ikkinchi bobda “**Guliston**” asaridagi qo‘shma fe’llarning semantik xususiyatlari va derivatsion modellari” tadqiqi amalga oshirilgan. Qo‘shma fe’llarning derivatsiyasi bo‘yicha tahlillar “Guliston” asarida 4 ta katta struktur tip va 13 ta yasalish modeli mavjudligini ko‘rsatdi. Mazkur bobning dastlabki fasli “Guliston” asarida keng qo‘llanilgan *ism+fe’l* struktur tipli qo‘shma fe’llarning semantik va grammatik xarakteri, ichki yasalish modellari, qo‘shma fe’lni tashkil qiluvchi morfemalarning hosila ma’noda tutgan o‘rni kabi masalalarni yoritishga bag‘ishlangan. Asarda qo‘llangan mazkur tipli qo‘shma fe’llarning ichida *ot+fe’l* modeli sermahsul ekani kuzatildi.

“Guliston” asarini o‘rganish davomida qo‘shma fe’llarning yordamchi fe’l komponenti vazifasida *kardan, šodan, budan, gaštan, gardānidan, sāxtan, xāstan, āwardan, gereftan, rasidan, āmadan, bāxtan, pušidan, raftan, didan, zadan, warzidan, xāndan, goftan, tāftan, dāštan, māndan, farmudan, oftādan, kašidan, namudan, dādan, čidan, xordan, feriftan, nehādan, bordan, bastan, āzurdan, yāftan, šostan, kandan, robudan, šomordan, nešastan, xaridan, xarāšidan, baxšidan, ārāstan, peywastan* kabi sodda; *dar āwardan, bar āmadan, bar xāstan, bar dāštan, bar tāftan, forud āwardan, foru bastan, bar gereftan, bar afsāndan, foru nešāndan, dar sepordan, foru bastan, bar āwardan* kabi prefiksli; *bāz zadan, negāh dāštan* kabi qo‘shma fe’llarning qo‘llanishi kuzatildi. Ushbu model asosida yasalgan qo‘shma fe’llarning katta qismida yordamchi fe’l vazifasida کردن (*kardan* – *qilmoq*) fe’li keladi.

هر دم از عمر میرود نفسی
چون نگه می کنم نمازند بسی.

Har dam az omr mirawad nafasi

Čun negah mikonam namānad basi. (G. 20-bet).

⁵⁷ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent: TDSHU, 2009. – B. 91.

⁵⁸ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent: TDSHU, 2009. – B. 93.

⁵⁹ Алимova X. Дарий тилида сўз ясашиши. – Тошкент: ТДШУ, 2019.

⁶⁰ Ahmedova D.R., Xodiyeva N.T., Xabibullayeva M.R. Hozirgi zamon fors tilida sodda fe’l asosida tuzilgan qo‘shma fe’llarning struktur tahlili // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – B. 539.

⁶¹ Азимджанова Д. Роль глагольной лексики в разграничении стилей персидского языка (на примере книжно-письменного и разговорного стилей) // Sharq mash’ali. – B. 49.

Mazmuni: *Umrдан bir nafas ketayotgan har dam, Ko‘p odam qolmaydi, atrofga boqsam.*

Ot+fe‘l modeli asosida yasalgan qo‘shma fe‘llarda ism va fe‘l qismlarning o‘rin almashgan holatda kelishi asosan she‘riy matnlarda kuzatilib, vazn va ritm talabi bilan yuzaga chiqqan:

آن را که به جای توست هر دم کرمی
عذرش بنه ار کند به عمری ستمی.

Ānrā ke be jā-ye tust har dam karami

Ozraš beneh ar konad be omri setami. (G. 115-bet).

Mazmuni: *Senga har doim yaxshilik qilgan kishi umrida biror marta yomonlik qilsa, uni kechir.*

Asarning lisoniy tahlili davomida sar – سر (bosh), dast – دست (qo‘l), pā – پا (oyoq), češm – چشم (ko‘z), zabān – زبان (til), ruy – روی (yuz) kabi somatik birliklar ishtirokida yasalgan qo‘shma fe‘llarning 211 o‘rinda qo‘llangani aniqlandi. Lingvostatistik tahlil asarda keltirilgan jami qo‘shma fe‘llarning 10.9 foizini tashkil qilishini ko‘rsatdi. Xususan, dast so‘zi 63 (*dast kašidan, dast yāftan, dast bordan...*), sar 61 (*sar kardan, sar āmadan, sar nehādan...*), del 32 (*del dādan, del bastan, del bar dāstan...*), ruy 23 (*ruy gardānidan, ruy tāftan, ruy namudan...*), zabān 11 (*zabān dar kašidan, zabān derāzi kardan, zabān bastan...*), pā(y) 7 (*pāy gereftan, pāy kašidan, pāy nehādan...*), češm 7 (*češm dāshtan, češm foru bastan, češm pušidan...*), dide 5 (*dide barham bastan, dide bastan, dide bar kardan...*), kaf 1 (*be kaf āwardan*) va bar (*dar bar kardan*) 1 o‘rinda qo‘shma fe‘l yasalişida ishtirok etgan.

“Guliston” asarida arabiy so‘zlar ham qo‘shma fe‘l yasalişida keng qo‘llanilgan. Tahlillar tafaul, tafoul, efteol, estef‘ol, af‘ol, tafail, mufoala boblariga oid masdarlar va sifatdoshlarning qo‘shma fe‘l yasalişida ishlatilganini ko‘rsatdi. Ism qism sifatida tafaul va efteol boblariga oid arabiy masdarlarning faol ishlatilgani kuzatildi:

1. Mufoala bobi sifatdoshlari bilan: مجاورت کردن، مطالعه کردن، مبالغه کردن، مخالطت مشاهده کردن، مداومت نمودن، ملاطفت کردن، مسامحت نمودن، مخالفت کردن، مخالطت گشتن، مطایبت کردن، موافقت کردن، مراقبت کردن، مصارعت کردن، مطاوعت کردن، مجاهده بردن.

2. Tafa‘ul bobi masdarlari bilan: تقرب کردن، تبسم کردن، تضرع کردن، تملط کردن، تکبر کردن، تجنب کردن، توقف کردن، تمتع یافتن، تخیر کردن، تحمل کردن، تعهد کردن، تکبر کردن، تصور کردن.

3. Tafoul bobi masdarlari bilan: شفاعت کردن، تفاوت کردن، تناول کردن.

4. Efteol bobi masdarlari bilan: اطلاع فرمودن، افتخار کردن، اختیار کردن، التجا کردن، اطلاع یافتن، اتفاق افتادن، اتفاق کردن، انتقام کشیدن، اقتصار کردن، التفات کردن، اقتدا کردن، عتقاد داشتن، اعتراف کردن، اعتراض کردن، احتراز کردن.

5. Estef‘ol bobi masdarlari bilan: استغفار گفتن، استظهار داشتن، استقبال کردن، استقصا فرمودن.

6. Afʼol bobi masdarlari bilan: افطار کردن، اكرام کردن، اقدام نمودن، اكرام کردن، اصراف کردن، اعراض کردن.

7. Tafail bobi masdarlari bilan: توديع کردن، تعزيت کردن، تفويض کردن، وصيت کردن، تفتيش کردن، تقويت کردن، تعليم دادن، تفریقه افتادن، تعجيل کردن.

“Guliston” asaridagi qo‘shma fe’llarning ikki xil distant holati kuzatildi:

1. Ism qism o‘zidan keyingi birlikka izofa orqali bog‘langan:

شب را ببوستان با یکی از دوستان اتفاق مبیّت افتاد.

Šabrā be bostān bā yeki az dustān ettefāy-e mabiyt oftād. (G. 28-bet).

Tarjimasi: *Bo ‘stonda do ‘stlardan biri bilan kechalamoq ittifoqi sodir bo ‘ldi.*

2. Ism qism o‘zidan keyingi birlikka old ko‘makchi orqali bog‘langan:

از طبیعت بزرگان بدیع است روی از مصاحبت مسکنان تافتن و فایده و برکت دریغ داشتن.

Az tabiat-e bozorgān badiye’ ast ruy az mosāhebat-e meskinān tāftan wa fāyde o barakat dariy dāştan. (G. 148-bet).

Tarjimasi: *Miskinlarning suhbatidan yuz o‘girish va ulardan foyda va barakatni darig‘ tutish ulug‘larning tabiatidan uzoqdur.*

Bobning ikkinchi fasli “*Ravish+fe’l*” modelidagi qo‘shma fe’llar” deb nomlanib, unda morfologik jihatdan o‘zgarma so‘z turkumi bo‘lgan ravishlar ishtirokida yasalgan qo‘shma fe’llar tahlili amalga oshirilgan. Tahlillar asarda holat ravishlari ishtirokida yasalgan qo‘shma fe’llarning miqdor jihatdan boshqa ma’no guruhlariga nisbatan ko‘p ekanligini ko‘rsatdi.

Bobning uchinchi fasli “*Old ko‘makchi+ism+fe’l*” modelidagi qo‘shma fe’llar” deb nomlanib, unda *be*, *az*, *bar*, *dar* kabi old ko‘makchilarning qo‘shma fe’llar yasalishidagi ishtiroki masalasi yoritilgan. *Old ko‘makchi+ism+fe’l* tipli qo‘shma fe’llarning morfem qismi sifatida *be*, *az*, *bar*, *dar* kabi old ko‘makchilarning kelishi ularning xarakterli xususiyatidir. Aksariyat holatlarda old ko‘makchilar o‘zining grammatik ma’nosini yo‘qotishi kuzatildi.

